DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-06-49 Pages: 456-461

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

REFLECTION OF HISTORICAL REALITY IN THE MEMOIRS OF SHUKRULLO AND SAID AHMAD

Rayhon Umrzokovna Norkulova
PhD Student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i
E-mail: rayhonnarkulova0@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: memoirs, individual and era, Uzbek literature, Shukrullo, Said Ahmad, Oybek, historical interpretation, artistic thinking.

Received: 25.10.26
Accepted: 26.10.26
Published: 27.10.26

Abstract: This article analyzes the specific features of the memoir genre in Uzbek literature and the artistic interpretation of the relationship between the individual and the era. The memoirs of Said Ahmad ("Yo'qotganlarim va topganlarim") and Shukrullo ("Javohirot sandig'i") are studied as the main sources, and the ways in which historical reality is reflected through individual memory are discussed. Using the example of Oybek's work and the debates surrounding the creation of his novel "Navoiy", the article also analyzes the relationship between the creative personality and the ideology of the period. It is shown that Shukrullo interprets the era through philosophical and aesthetic generalizations, while Said Ahmad portrays it through direct observation of life and personal testimony.

SHUKRULLO VA SAID AHMAD XOTIRALARIDA TARIXIY VOQELIKNING AKS ETISHI

Rayhon Umrzoqovna Norqulova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
rayhonnarkulova0@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xotira asarlari, shaxs va davr, o'zbek adabiyoti, Shukrullo, Said Ahmad, Oybek, tarixiy talqin, badiiy tafakkur.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida xotira janrining o'ziga xos xususiyatlari hamda unda shaxs va davr munosabatining badiiy talqini tahlil qilinadi. Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va

topganlarim” va Shukrulloning “Javohirot sandig‘i” xotira asarlari asosiy manba sifatida o‘rganilib, ularda individual xotira orqali tarixiy voqelikni aks ettirish usullari yoritiladi. Shuningdek, Oybek faoliyati va uning “Navoiy” romanini yaratish jarayoniga doir bahslar misolida ijodkor shaxsining davr mafkurasi bilan munosabati tahlil qilinadi. Shukrullo ijodida davr talqini falsafiy-estetik umumlashmalar orqali, Said Ahmad asarlarida esa bevosita hayotiy kuzatish va guvohlik asosida yoritilishi aniqlanadi.

ОТРАЖЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ В ВОСПОМИНАНИЯХ ШУКРУЛЛО И САИДА АХМАДА

Райхон Умрзаковна Норқулова
Докторант базовой докторантуры
Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Электронная почта: rayhonnarkulova0@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мемуарная литература, личность и эпоха, узбекская литература, Шукрулло, Саид Ахмад, Ойбек, историческая интерпретация, художественное мышление.

Аннотация: В статье анализируются своеобразные особенности жанра мемуаров в узбекской литературе, а также художественная интерпретация взаимоотношений личности и эпохи. В качестве основных источников рассматриваются мемуарные произведения Саида Ахмада «Йўқотганларим ва топганларим» («Потерянное и обретённое») и Шукрулло «Жавоҳирот сандиғи» («Сундук драгоценностей»), на примере которых раскрываются способы отражения исторической действительности посредством индивидуальной памяти. Кроме того, на материале дискуссий о деятельности Ойбека и процессе создания его романа «Навои» анализируется взаимоотношение творческой личности с идеологией эпохи. Выявлено, что в творчестве Шукрулло интерпретация эпохи осуществляется посредством философско-эстетических обобщений, тогда как в произведениях Саида Ахмада она основывается на непосредственных жизненных наблюдениях и личных свидетельствах.

Kirish. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida xotira (memuar) janri muhim o‘rin egalladi. Ushbu janr orqali adiblar o‘z hayot yo‘li, boshdan kechirgan voqealari, zamondoshlari hamda ular yashagan davr muhitini badiiy ifoda etadilar. Xotira asarlarining o‘ziga xosligi shundaki, ularda shaxsiy hayotiy tajriba bilan tarixiy voqelik uyg‘unlashadi. Shu jihatdan mazkur janr nafaqat adabiy, balki tarixiy manba sifatida ham qimmatlidir. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetuk vakillari – Said Ahmad va Shukrullo xotira asarlarida shaxs va davr talqini ilmiy tahlil qilinadi. Xotira janrining asosiy xususiyatlari avtobiografiklik, tarixiylik va badiiylikdan iboratdir. Bu janrda muallif o‘z hayotini tasvirlash orqali muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy muhitini yoritadi.

Xotira asarlarida muallif o‘zini asar qahramoni sifatida ko‘rsatadi. Said Ahmadning “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asarida adibning shaxsiy hayoti bilan birga o‘z davrining adabiy muhiti ham keng yoritilgan. Asarda muallif o‘z zamondoshlari, ijodiy izlanishlari va hayotiy tajribalarini samimiy tarzda bayon etadi. Bu orqali kitobxon nafaqat yozuvchi shaxsini, balki o‘sha davr ruhini ham his etadi. “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asarida shaxs talqini muallifning o‘zini markaziy qahramon sifatida namoyon etishi orqali ochib beriladi. Bu jihat ayniqsa, asarning kirish qismida, Oybek haqida fikr yuritishga bag‘ishlangan parchada yaqqol namoyon bo‘ladi. Said Ahmad bu o‘rinda buyuk adib haqida yozish oldidan o‘zida paydo bo‘lgan jur’atsizlik hissini ochiq ifodalaydi. Muallifning “buyuk odamlar haqida gap aytish oson, ammo uni qog‘ozga tushirish qiyin” [4, 4-b.] degan mazmundagi mulohazalari uning ichki mas’uliyatini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yozilgan fikrning “tarix mulkiga aylanishi” haqidagi qarashi muallifning badiiy so‘zga yuksak baho berishini anglatadi. Yuqorida keltirilgan parcha asosida aytish mumkinki, “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asarida shaxs talqini muallifning ichki kechinmalari, ikkilanishlari va mas’uliyat hissi orqali yoritilgan. Bu esa memuar asarning badiiy va ilmiy qiymatini oshiradi. Asarda Oybekning Navoiy ijodini sinchkovlik bilan o‘rgangani, unga o‘zgacha mehr qo‘ygani go‘zal tarzda ifoda etilgan. “Hirot xaritasini oldiga qo‘yib, ko‘hna shahar ko‘chalarini xayolan necha martalab kezib chiqardi. Navoiy zamondoshlari, ularning shoir haqida aytgan gaplari, saroy ziddiyatlari, do‘stlari va dushmanlari, podshohning beqaror o‘ylari – bari-bari Oybek xotirasiga o‘rnashib qoldi. Buyuk shoir yozgan jami asarlarni qunt va sabot bilan o‘rganib chiqdi. Ana shundan keyingina Navoiy qiyofasi bir butun holda ko‘z oldida paydo bo‘ldi.” [4, 9-b.] Yuqoridagi parchalar Oybekning “Navoiy” romanini yaratish jarayoni chuqur ilmiy tayyorgarlik, tarixiy manbalarga tayanish va yuksak badiiy tafakkur uyg‘unligida kechganini ko‘rsatadi. Ushbu omillar esa asarning nafaqat adabiy, balki ilmiy qiymatini ham belgilab beradi. Oybekning “Navoiy” romanini yaratishga bo‘lgan kuchli ijodiy ishtiyoqi nafaqat Said Ahmad xotiralarida, balki Ulug‘bek Hamdamning ilmiy qarashlarida ham o‘z tasdig‘ini topadi. “Asarda Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytgan pallasidan to o‘limiga qadar bo‘lgan davr qamrab

olingan. Ehtimol, shuning uchun ham Oybek umrining so‘nggi yillarida “Bola Alisher” deya ulug‘ shoirning bolalik damlariga alohida qissa bag‘ishlagandir. Nima bo‘lganda ham, Navoiy mavzusi Oybek ijodining bosh mavzusi bo‘lgani shubhasiz.” [1, 209-b.] Adabiyotshunos olimning fikricha, Oybek ijodida Alisher Navoiy siymosi bosh mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Oybekning badiiy asarlarida va ilmiy izlanishlarida Navoiy obrazi alohida ahamiyatga ega. Adib Navoiy siymosini faqatgina tarixiy shaxs emas, balki o‘zbek milliy tafakkuri, ma’naviyati va adabiy an’analari timsoli sifatida talqin qiladi. “Oybek tadqiqot davomida Navoiyning davlat arbobi sifatida faoliyatiga keng o‘rin ajratadi: qurdirgan inshootlari, homiyliklari, xayr-ehsonlarining asosini mavjud tarixiy manbalardagi ma’lumotlar asosida dalillaydi. Garchi Navoiy o‘z davri ijodkorlariga homiylik qilgan bo‘lsa-da, barcha shoirlar to‘g‘risida Navoiy marhamatidan “oltin, kumushga botgan” degan xulosa chiqarish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Navoiyning o‘zi “Majolis un-nafois” tazkirasida o‘lgan payti ko‘mish uchun hatto ozgina mablag‘i bo‘lmagan shoirlar haqida ma’lumot keltirgan edi” [2, 359-b.]. Bu kabi misollar Oybek ijodida Navoiy siymosi alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Oybekning Alisher Navoiyga bo‘lgan yuksak hurmati nafaqat Said Ahmad asarlarida, balki boshqa yozuvchi va adabiyotshunoslarning xotira hamda ilmiy tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Oybek tomonidan yaratilgan “Navoiy” romani [3] o‘zbek tarixiy nasrining yirik namunasi bo‘lishiga qaramay, uning yaratilish jarayoni murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda kechgan. Asar ustida ishlash jarayonida adib turli tanqidlar va hatto tuhmatlarga duch kelgani davrning mafkuraviy bosimi mavjudligini ko‘rsatadi. Said Ahmadning Oybek shaxsiga doir esdaliklari adabiy jarayondagi murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitni ochishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodkor yaratgan xotiralar orqali biz nafaqat Oybek shaxsini, balki o‘sha davrning adabiy muhitini, ijod erkinligi darajasini ham chuqurroq anglaymiz.

Shukrulloning “Javohirot sandig‘i” asari o‘ziga xos badiiy tuzilishi bilan ajralib turadi. Xotira asarini o‘qish jarayonida Shayx Sa’diy asarlariga tez-tez murojaat qilinganligini kuzatamiz. Xotira asarida Shayx Sa’diy hikmatlaridan foydalanish muallifning badiiy-estetik qarashlarini yoritishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, Sa’diydan keltirilgan quyidagi parcha asarning g‘oyaviy yo‘nalishini ochishda alohida ahamiyat kasb etadi.

“Harchand o‘qibsan bilimdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan
Ustiga kitob ortilgan eshak
Na olim va na donodir beshak.
Bu miyasiz qaydan topadi xabar
Ustida o‘tinmi yo kitob-daftar?

“Ilmiga amal qilmagan olim, mash’ala ko‘targan ko‘rga o‘xshaydi”, – deganlariday, kitob o‘qib, uni hayotga tatbiq etmog‘i ham kerak”, – degan edi [5, 88-b.].

Mazkur hikmatda bilim va amal o‘rtasidagi munosabat yoritiladi. Unda ta’kidlanishicha, inson qanchalik ko‘p bilim egallamasin, agar u o‘z bilimini amaliyotda qo‘llamasa, bu bilimning ijtimoiy va ma’naviy qiymati pasayadi. Shukrullo ushbu hikmatni keltirish orqali o‘z xotiralarida ifodalangan voqealarga falsafiy mazmun yuklaydi. Ya’ni muallif shaxsiy kuzatuv va tajribalarni Sa’diy hikmatlari bilan uyg‘unlashtirib, ularni umuminsoniy darajaga ko‘taradi. Natijada asar oddiy xotira bayonidan chiqib, ma’rifiy-axloqiy yo‘nalishga ega bo‘lgan badiiy-falsafiy asarga aylanadi. Asarda shunga o‘xshash “Jabri ustozi beh, zi mehri padar”, ya’ni “Ustozning jabri otaning mehridan afzal” kabi Sa’diy qalamiga mansub satrlar ham keltirilgan. Asarda muhim o‘rin tutuvchi jihatlardan biri – muallifning Sa’diy Sheroziy ijodiga murojaatidir. Sa’diy hikmatlari, pand-nasihatlari asarda turli o‘rinlarda keltiriladi. Bu bilan adib murakkab davrda insoniy qadriyatlarni anglashda Sa’diy hikmatlariga tayanadi. Sa’diy hikmatlari asarda nafaqat bezak unsuri sifatida, balki muallif fikrini chuqurlashtiruvchi ma’naviy asos sifatida xizmat qiladi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, Shukrullo o‘z davrini talqin etishda faqat voqelik bilan cheklanib qolmaydi, balki uni umuminsoniy qadriyatlar mezonida baholaydi. Asar “Daryoga tashlangan yakkacho‘pdan o‘tish oldidagi o‘ylarim” sarlavhasi va “Xalqimizda “ataladan tish sinibdi” degan gap bor” satrlari bilan boshlanadi. Ushbu asarda muallif xotiralarini bayon etish jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalariga – rivoyatlar, latifalar, maqollar va hikmatli so‘zlarga keng o‘rin beradi. Bu orqali nafaqat shaxsiy hayot lavhalari, balki xalqning ko‘p asrlik ma’naviy tajribasi ham yoritiladi. Asarda shaxs va davr talqini faqatgina tarixiy voqealar orqali emas, balki xalq donishmandligi, hayotiy hikmatlar va ma’naviy qadriyatlar vositasida ifodalanadi. Asar tuzilishi jihatidan xotira va xalq og‘zaki ijodini uyg‘unlashtiradi. Asar avvalida shoir nazmdan nasrga o‘tishdagi qiyinchilik va ikkilanishlari haqida shunday yozadi: “Tavakkal qilib o‘zim ko‘rmagan yo‘lni ham ko‘rmoqchi bo‘ldim. Ammo bu yo‘lga qadam bosishni o‘ylaganimda, ko‘nglimga birdaniga g‘ul-g‘ula tushib qoldi. Nogahon o‘zimni katta daryoga tashlangan yakkacho‘p oldidan chiqib qolganday his qildim. Ko‘nglimda xavf tug‘ildi. Bu yakkacho‘pga qadam qo‘yishni o‘ylaganimda meni vahima bosdi. Axir, bundan qadim sharqda faqat buyuk Shayx Sa’diygina muvaffaqiyat bilan o‘ta olgan.” [5, 12-b.] Asarda odob-axloq mavzulari muhim o‘rin egallaydi. Asarda insoniy fazilatlar – odob, sabr, bilim, haqiqat, adolat kabi qadriyatlar bilan birga, salbiy illatlar – manmanlik, yolg‘onchilik, xasislik ham o‘rin oladi. Muallif maqollar, hikmatli so‘zlar va hayotiy misollar orqali bu mavzularni yoritadi, shuningdek, ularni shaxs tarbiyasi va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘laydi. Asarda muallifning safdoshi Hamid G‘ulomning andijonliklar mehmondo‘stligi haqida aytgan “Hotamning saxiyligi” nomli hikoyasi ham keltirilgan.

Xulosa. O‘zbek xotira adabiyoti namunalari, xususan, Shukrullo va Said Ahmad asarlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur janrda shaxs va davr munosabati murakkab badiiy-falsafiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki adib ijodida xotira nafaqat individual hayotiy tajribaning

ifodasi, balki muayyan tarixiy davrning ma’naviy, ijtimoiy va ruhiy manzarasini aks ettiruvchi muhim vosita vazifasini bajaradi.

Said Ahmad xotira asarlarida davr talqini ko‘proq hayotiylik, samimiylik va realistik tasvir orqali ifodalanadi. Adib o‘z zamondoshlari, ijtimoiy muhit va kundalik hayot manzaralarini tasvirlash orqali davr ruhiyatini jonli va ishonarli tarzda ochib beradi. Bu asarlarda shaxs obrazlari orqali jamiyatdagi o‘zgarishlar, insoniy munosabatlar va axloqiy qadriyatlar talqin etiladi.

Shukrulloning “Javohirot sandig‘i” asarida esa shaxsning ichki dunyosi, ma’naviy izlanishlari va tarixiy xotirasi markaziy o‘rinda turadi. Muallif o‘z davrini anglashda mumtoz adabiyotga, xususan, Sa’diy Sheroziy hikmatlariga murojaat qilish orqali voqelikni falsafiy umumlashtirish darajasiga ko‘taradi. Natijada, asarda shaxs nafaqat davr mahsuli, balki uni anglovchi va baholovchi sifatida gavdalanadi.

Shunday qilib, Said Ahmad va Shukrullo asarlari o‘zbek adabiyotida shaxs va davr talqinining turli badiiy shakllarini namoyon etadi. Ularning ijodi xotira janrining imkoniyatlarini kengaytirib, tarixiy haqiqatni inson ruhiyati va tafakkuri orqali yoritishning samarali yo‘llarini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamdam U. O‘zbek va jahon adabiyotiga chizgilar. – Toshkent: Qamar media, 2026.
2. Hamroyeva O. Adabiyotshunoslik tarixi. – Toshkent: Bookmany print, 2026.
3. Oybek. Navoiy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – Toshkent: Sano-standart, 2019.
5. Shukrullo. Javohirot sandig‘i. – Toshkent: Oltin qalam, 2024.